

ELIF SHAFQNING ISHQA OID 40 QOIDA ASARI HAQIDA

Mamadiliyeva Mahliyo Akromovna

JDPI talabasi

Kitoblarimiz ichida shunday kitoblar bo'ladiki, uni hech qachon tugamasligini xohlaymiz. Menda shunday kitob bor. Men bundan xursandman. Bu kitob turk va Amerika yozuvchisi Elif Shafaqning Ishqqa oid 40 qoida asari hisoblanadi. Asar nomiga qarab unga baho berishga shoshilmang. Asarda hayotimiz davomida kerak bo'ladigan qoidalarga duch kelamiz. Asar voqralari ikki zamon va davr o'rtasida boradi, lekin bu o'quvchiga qiyinchilik tug'dirmaydi. Asarni o'qish davomida har bir qahramon ruhiyatiga kirib, uni anglaysiz va unga hamdard bo'lasiz.

Asarning bosh qahramoni Shams Tabriziy hisoblanadi. Uning Rumiya bo'lgan muhabbati uni sabr qilishga va barchasiga chidashga undaydi. Asar voqealarini o'qir ekansiz qirq yoshga kirgan uy bekasi Ellaning ulg'ayib qilgan uch farzandi va xiyonatkor erini tashlab ketib, darveshona hayot kechiruvchi Aziz bilan uning qolgan bir yillik umrini birga o'tkazishi, Cho'l atirguli deb nom olgan fohishaning Rumiya uyidan panohtopib, hidoyat yo'lga kirishi ajablantirmay qo'yadi. Otasini qizg'anib uning do'stini o'ldirtirgan Aloudinni tushunishga harakat qilasiz. Ichkilikboz Sulaymon va moxov tilanchining tug'yonlariga sherik bo'lasiz.

Rumiya va Tabriziy, Aziz va Ellaning munosabatlari o'quvchida hayajon va hadik uyg'otadi. Ella va Aziz munosabatlarida ishqning masofa, vaqt yosh tanlamasligining guvohi bo'lamiz. Asl ishq rejalashtirilmagan holda tasodifan kirib keladi.

Asardan ayrim iqtiboslar keltirmoqchiman. Sabr - degani nafaollik degani emas. Sabr degani oqibatni ko'ra olish va unga ishonish demakdir. Sabrning ma'nosi nimada?

Tikanga qarab atirgulni ko'rmoqlikda; tunda bo'la turib tongni ko'ra bilmoqlikdir. Lekin bu hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. "Alloh bandasiga o'zi

ko'tara olganchalik yukni beradi". Demakki, bizga biron bir dard berilar ekan, bu bejizga emas. Zeroki, hech bir hodisa

behikmat bo'lmaydi.

Asarda inson o'z "menini" topishi yo'lidagi yetti qoida aytib o'tiladi.

Asar so'ngida Shams va Aziz vafot etsada, mutolaadan qalbingizda iliq nur qoladi.

Bu nur sizni ishq sari yetaklaydi. Barchaga bu asarni o'qishni tavsifa bergan bo'lardim.

O'qing zeroki eng yaxshi xulosa o'zingiz chiqargan xulosadir.